

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARDA ANTONIMIYA-LINGVISTIK XODISA SIFATIDA

Rustamova Madina Zarif qizi,
Urganch RANCH texnologiya universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18721282>

Annotatsiya. Ushbu ishda ingliz va o‘zbek tillari tizimidagi frazeologik antonimiyaning lisoniy tabiati qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki tilda qarama-qarshi ma’noli iboralarning hosil bo‘lish usullari, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Ishda frazeologik antonimlarning quyidagi jihatlari tahlil qilingan.

Komponentlar tarkibi: Bir xil va turli xil leksik birliklardan tashkil topgan antonim iboralarning o‘zaro farqi.

Semantik ko‘lam: Inson xarakteri, hissiyotlari va ijtimoiy holatlarini ifodalashda antonimiyaning roli.

Milliy-madaniy xususiyatlar: Ingliz va o‘zbek xalqlarining dunyoqarashi, mentaliteti va yashash tarzi frazeologik zidliklarda qanday aks etishi (masalan, somatik frazeologizmlar misolida).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, frazeologik antonimiya shunchaki ma’noviy zidlik emas, balki tilning ekspressiv imkoniyatlarini boyituvchi murakkab kognitiv jarayondir. Maqolada keltirilgan qiyosiy tahlillar tarjimashunoslik, leksikografiya va chog‘ishtirma tilshunoslik sohalari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, antonimiya, komponent, semantika, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, ingliz tili, o‘zbek tili.

Аннотация. В данной работе с сопоставительной точки зрения исследуется лингвистическая природа фразеологической антонимии в системе английского и узбекского языков. Основной целью исследования является выявление способов формирования фразеологических единиц с противоположным значением, а также раскрытие их семантических и структурных особенностей в обоих языках. В работе проанализированы следующие аспекты фразеологических антонимов:

Компонентный состав — различия между антонимичными фразеологизмами, образованными из одинаковых и различных лексических единиц;

Семантический охват — роль антонимии в выражении характера человека, его эмоций и социального положения;

Национально-культурные особенности — отражение мировоззрения, менталитета и образа жизни английского и узбекского народов в фразеологических противопоставлениях (на примере соматических фразеологизмов).

Результаты исследования показывают, что фразеологическая антонимия представляет собой не просто семантическую противоположность, а сложный когнитивный процесс, обогащающий экспрессивные возможности языка. Приведённые в статье сопоставительные анализы имеют практическую значимость для переводоведения, лексикографии и сопоставительного языкознания.

Ключевые слова: фразеология, антонимия, компонент, семантика, сопоставительный анализ, лингвокультурология, английский язык, узбекский язык.

Annotation. This study provides a comparative analysis of the linguistic nature of phraseological antonymy in English and Uzbek. The primary objective is to reveal the formation methods, semantic characteristics, and structural features of opposite-meaning idioms in both languages.

The research focuses on: **Component Structure:** Differences between phraseological antonyms formed by changing a single component versus those with entirely different structures.

Semantic Scope: The role of antonymy in describing human character, emotions, and social status.

Socio-Cultural Aspects: How the worldviews, mentalities, and lifestyles of English and Uzbek people are reflected in idiomatic contrasts (e.g., in somatic phraseological units).

The findings suggest that phraseological antonymy is not merely a semantic contrast but a complex cognitive process that enriches the expressive potential of a language. The comparative analysis presented is of practical significance for translation studies, lexicography, and contrastive linguistics.

Key words: phraseology, antonymy, component, semantics, comparative analysis, linguoculturology, English language, Uzbek language.

Kirish. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini, xalq tafakkuri va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan muhim lingvistik hodisalardan biridir. Ushbu frazeologizmlar tarkibida antonimik munosabatlarning namoyon bo‘lishi tilning semantik tizimini boyitish bilan birga, ma’no qarama-qarshiligi asosida obrazlilik va ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Frazeologik antonimiya, ayniqsa, nutqda fikrni keskinlashtirish, emotsional-ekspressiv rang-baranglik yaratish hamda kommunikativ maqsadni aniq ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarda antonimiya hodisasini qiyosiy jihatdan o‘rganish ikki til o‘rtasidagi semantik o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yoritishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-strukturaviy tahlil tanlab olindi. Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi metodik bosqichlar va usullardan foydalanildi:

1. Material yig‘ish va filtrlash metodikasi

Tadqiqotning birinchi bosqichida ingliz va o‘zbek tillaridagi leksikografik manbalar (lug‘atlar) ustida ish olib borildi. Metodika asosini Sh.Rahmatullayevning frazeologik lug‘atlari va ingliz tilidagi "Oxford Dictionary of Idioms" kabi manbalardan maqsadli tanlanma (purposive sampling) usulida antonimik juftliklarni ajratib olish tashkil etdi. Bunda iboralarning nafaqat lug‘aviy ma’nosi, balki ularning uslubiy (stilistik) xususiyatlari ham inobatga olindi.

2. Qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil (Comparative-Contrastive Analysis)

Ushbu metod orqali ikki xil tizimli tildagi (flektiv va agglyutinativ) frazeologik antonimiyaning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlandi.

Metodik usul: Ingliz tilidagi ibora va uning o‘zbek tilidagi muqobili o‘rtasidagi semantik zidlik darajasi o‘lchandi. Masalan, "heart of gold – heart of stone" (inglizcha) va "ko‘ngli bo‘sh – ko‘ngli qattiq" (o‘zbekcha) juftliklarining somatik (tana a‘zolari bilan bog‘liq) xarakteri qiyoslandi.

3. Komponentli tahlil (Componential Analysis)

Frazeologik antonimlarning ichki tuzilishini o‘rganishda ushbu metod yetakchi o‘rin tutadi. Metodikaga ko‘ra, ibora tarkibidagi har bir so‘z (komponent) alohida tahlil qilinadi:

Leksik-semantik zidlik: Iboradagi bir komponentning antonimga almashishi (masalan: yaxshi ko‘rmoq – yomon ko‘rmoq).

Strukturaviy yaxlitlik: Iboraning butun bir birlik sifatida boshqa bir birlikka zid kelishi (masalan: mum tishlamoq – tili bir qarich).

4. Semantik interpretatsiya va polisemiya tahlili

Metodikaning muhim qismi ko‘p ma‘noli iboralarni tahlil qilishga qaratilgan. Bunda Sh.Rahmatullayev taklif etgan metod asosida, polisemantik iboraning har bir ma‘no qirrasini (semasi) alohida tekshirilib, uning antonimik imkoniyatlari aniqlandi.

Tahlil tartibi: Avval iboraning barcha ma‘nolari lug‘at bo‘yicha aniqlanadi, so‘ngra har bir ma‘no uchun alohida antonimik juftlik qidiriladi. Agar ma‘no faqat bitta bo‘lsa (monosemantik), u holda mutloq antonimik qator hosil qilinadi.

5. Miqdoriy (Statistik) ko‘rsatkichlar metodi

Tadqiqotda aniqlangan frazeologik antonimlar so‘z turkumlari bo‘yicha guruhlandi. L.Umirova metodikasiga tayangan holda, to‘plangan materiallar orasida fe‘lli, adverbial, adyektiv va substantiv frazeologizmlarning foiz ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Bu metodika qaysi turkumdagi iboralar antonimiyaga ko‘proq moyilligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Xulosa qilib aytganda, qo‘llanilgan metodika frazeologik antonimiyani shunchaki zid ma‘noli so‘zlar yig‘indisi emas, balki tilning ichki tizimiy munosabatlarini belgilovchi murakkab lisoniy hodisa sifatida tadqiq etishga xizmat qiladi.

Natija va muhokama. Antonimya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan xodisalardan biri bo‘lib, iboralarda ham so‘zlardagi darjada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tamondan iboralarning lug‘aviy ma‘nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan polisemyada bir iboraning ma‘nolarini o‘zaro farqlashga yordamlashadi, uchunchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi [1, 7]. Shunga ko‘ra frazeologik antonimiyaga tilshunoslar lingvistik xodisa va sinxron planda kuzatiladigan til birliklarining ichki sistem munosabatlari ma‘no aloqalarini tadqiq etish aspektlaridan biri sifatida qaraydilar.

Frazeologik antonimya xodisasi qator tilshunoslarni e‘tiborini tortgan lingistik xodisa sifatida e‘tirof etilishi bejiz emas. O‘zbekshunoslikda bo‘lgani kabi, Rim tilshunosligida 1990 yillarning boshlarida E.N.Miller frazeologik antonimya xodisasini chuqur tahlil etish va frazeologik antonimlardan iborat bo‘lgan lug‘at yaratish zaruriyatini anglab yetgan bo‘lsa, o‘zbekshunoslikda professor Rahmatullayev Shavkatning fikrlarini davom ettirgan holda Umirova Lola o‘zining ”Hozirgi zamon ingliz tilida fe‘l frazeologik paradigma” nomli nomzodlik dissertatsiyasida:”Frazeologik antonimlar tahlili ma‘lum frazeologik birlikning strukturaviy-ma‘noviy va stilistik xususiyatlarini ochib beradi. Antonimlik va frazeologizmlarni o‘rganish frazeologik birliklarda variantilik va sinonimlik munosabatlar mavjudligi kabi qator xodisalarni tushunishga yoradam beradi” – deb ta‘kidlaydi va nomzodlik dissertatsiyasida tadqiq uchun ajratilgan 500 juftdan 350 ga yaqin fe‘l, 49-adverbial, 50-adyektiv, 51-substantiv frazeologik antonimlar borligini va frazeologik antonimlar ko‘proq fe‘l frazeologizmlar orasida uchrashini aytib o‘tadi. Uning fikricha

antonimya va antonimlik-bir narsa emas. U farqlovchi belgilar majmuini antonimlik deb atash mumkinligini va bu hol esa, aksariyat til birliklari uchun umumiy bo‘lgan lingvistik xodisa sifatida tushunishga bog‘liqligini aytadi. Olimning fikricha, ma‘noni farqlash frazeologizmlarning ma‘lum ma‘nolarini bir necha leksikografik manbalarga binoan kontekst orqali tekshirish tahlili natijasida ajratiladi va quyidagi belgilarga qarab farqlash mumkinligini ko‘rsatadi:

1. Ma‘nosini butunlay tushunarli ikki antonim so‘z, yoki tarkibida frazeologizmlar ma‘nosini izohlovchi so‘z birikmalri bo‘lgan antonim so‘zlar: In an ill hour (baxtga qarshi) – in a good hour (baxtga ko‘ra) kabi misollar bilan izohlash mumkin.

2. Ikki so‘z birikmasi: birinchi holatda tasdiq, ikkinchi holatda inkor: keep off the grass (birovning ishiga burnini tiqmaslik) poke one’s nose into somebody’s affairs (birovning ishiga burnini tiqish) kabi. Bu yerda keep off va poke..into. bir-biriga nisbatan tasdiq va inkor holatdagi so‘z birikmasi sifatida qo‘llanilgan.

3. Bir-biriga semantik jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan ikki so‘z birikmasi-frazeologizm yoki so‘z bo‘lishi mumkin, boshqasi-erkin so‘z birikmasi yoki mustaqil so‘z bo‘lishi mumkin: keep one’s hair on- keep one’s temper, lose one’s hair- lose one’s temper.

Yuqoridagi fikralardan kelib chiqqan holda, biz ham frazeologik antonimiyaga tilshunoslikdagi lingvistik xodisa sifatida qarab, ushbu magistrlik dissertatsiyamizda ushbu xodisaga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Antonimlik lisoniy hodisa sifatida frazeologik birliklarga ham, alohida olingan so‘zlarga ham xosdir. Kuztishlar natijasida, so‘z va Fblar aro antonimlik tushunchasining o‘xshashlik va farqli tamonlari ko‘rsatilgan. So‘zlar va frazeologi birlik antonimligi umuiylikni ifodalovchi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, barcha birliklar, ularning mavhum munosabatlarini anglatishi, keng yoki o‘lchamli munosabatlar va b. So‘z va frazeologizmlar hisoblanadi. Antonim so‘zlarda va frazeologik birliklarda quyidagi birliklar kuzatildi: the sky – the blue blanket, echo – burden of song, eagle – the bird of Jove va b. Antonim tushunchalarning mantiqiy qarama-qarshiligi mavjudligi tan olindi va til birliklarining semantik qarama-qarshiligi ochiq oydin kuzatiladi: obey – disobey, fair-play – foul play [2, 80].

Zid ma‘noli antonimlar bir-biriga teskari tushunchalarni ifodalaydalashi hammamizga ma‘lum. Masalan o‘zbek tilidagi “ko‘ngli joyiga tushdi-yuragiga g‘ulg‘ula tushdi”, “qoni qaynadi-og‘zi qulog‘iga yetdi” iboralarni bir biriga antonim iboralar sifatida qaraladi. Yoki xuddi shu ma‘nolarni ifodalovchi, ya‘ni “hotirjam bo‘lmoq va tashvishlanmoq” ma‘nosini ifodalovchi ingliz tilidagi “calm down – worry about” frazeologik fe‘llar yoki “achiqqanmoq, qizishmoq- behad sevinmoq” ma‘nolarini beruvchi “make smb’s blood boil – happy as a lark” kabi frazeologizmlarni bir biriga antonim frazeologizmlar deb aytish mumkin. Tadqiq etilayotgan frazeologizmlar, tahlilining ko‘rsatishicha, o‘z leksik tuzilishi bilan butunlay farqlanadigan birliklarga qarama-qarshi qo‘yiladi.

Antonimiya xodisasini barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa soʻzlar bilan ifodalangan iboralar orasidan aniqlab olish oson. Masalan oʻzbek tillaridagi “savol bermoq” va “javob qaytarmoq”; “yerga urmoq” va koʻkga koʻtarmoq” kabi iboralar. Bu iboralarda birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki soʻz komponent (savol-javob), (bermoq-qaytarmoq), ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi soʻz komponentlar (yerga-koʻkga) oʻzaro antonimdir. Yoki ingliz tillaridagi “ask a question” va “give an answer” iboralarida ikkinchi soʻz komponentlari (question- answer) oʻzaro antonimdir [4, 75].

Frazeologik antonimlarda qantashgan biror leksik komponentlar ayni bir soʻzning oʻzi va ikkinchi bir leksik-komponentlar oʻzaro antonim soʻzlar boʻlishi mumkin:

- Yuragi keng –yuragi tor (keng – tor);
- Soʻzida turmoq – soʻzidan qaytmoq (turmoq – qaytmoq);
- Savol bermoq – javob bermoq (savol – javob);
- Dunyoga kelmoq- dunyodan ketmoq (kelmoq – ketmoq);
- Esdan koʻtarilmoq- esga keltirmoq (koʻtarilmoq – keltirmoq);
- Yomon koʻrmoq- yaxshi koʻrmoq (yaxshi – yomon);
- Istarasi issiq- istarasi sovuq (issiq – sovuq);
- Koʻngli qora – koʻngli toza (qora –toza);
- Koʻziga issiq koʻrinmoq – koʻziga sovuq koʻrinmoq (issiq – sovuq);
- Koʻngli boʻsh – koʻngli qattiq (boʻsh – qattiq) kabi koʻplab misollarni keltirish mumkin.

Ingliz tilida ham frazeologik antonimlarda qatnashgan biror leksik komponentlar ayni bir soʻzning oʻzi va ikkinchi bir leksik-komponentlar oʻzaro antonim soʻzlar boʻlgan frazeologizmlarni uchratish mumkin:

- Have a heart of gold- have a heart of stone (gold – stone) = Koʻngli boʻsh-koʻngli qattiq (boʻsh- qattiq);
- Give a question – give an answer (question – answer) = Savol bermoq – javob bermoq (savol-jabovb);
- Keep one’s word – break one’s word (keep- break) = Soʻzida turmoq- soʻzidan qaytmoq (turmoq- qaytmoq);
- Come to mind – slip one’s mind (come – slip) = Esdan koʻtarilmoq- esga keltirmoq (koʻtarilmoq- keltirmoq);
- Pass away – be born = Dunyoga kelmoq – dunyodan ketmoq. Oʻzbek tilidagi frazeologik antonimlarda “kelmoq – ketmoq” kabi oʻzaro antonim soʻzlar bilan ifodalangan ammo, “pass away – be born” iboralari esa bir biriga antonim frazeologim sifatida qaʼbul qilinsada, ularning tarkibidagi kopponentlar umuman boshqa -boshqa soʻzlar bilan ifodalangan.

Yoki tilshunoslikda shunday antonim frazeologizmlar uchraydiki, ular tarkibida oʻzaro sinonim boʻlgan soʻz komponentlar yoki aynan bir soʻz bilan ifodalangan soʻz komponentlar boʻlib turib ham maʼno jihatdan bir biriga nisbtan frazeologik antonimlarni

uchratish mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "ko'ngli joyiga tushdi" va "yuragiga g'ulg'ula tushdi", kabi o'zaro antonim bo'lgan frazeologizmlarga e'tibor qilsak. Bu antonim iborlar tarkibidagi leksik komponentlarning uchunchisi ayni bir so'z (tushdi- tushdi), birinchisi o'zro sinonim (ko'ngli – yuragi(ga)), ikkinchisi esa o'zaro ma'no munosabatni hosil qilmaydi (joyiga- g'ulg'ula).

Endi ingliz tilidagi "Have a heart of gold" va "have a heart of stone" iboralariga e'tibor qilsak. Bu iboralarda birinchi va ikkinchi so'z komponent aynan bir so'zning o'zi bilan ifodalangan: have – have; a heart – a heart kabi. Ammo, uchunchi leksik komponentlar esa o'zaro ma'no munosabatni hosil qilmaydi (gold-stone).

Bundan ko'rinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim so'z komponentlar bu iboralarning o'zaro antonim bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, barcha antonim iboralar tarkibida ham antonim so'z-komponentlar qatnashavermas ekan. Va bunday iboralarda antonimya iboralardan yahlitligicha anglashiladigan lug'aviy ma'no asosida belgilanadi [5, 8].

Sinonimiyada bo'lganidek, antonimik munosabat ham polisemantik iboralarda har bir ma'noga nisbatan alohida belgilanadi. Polisemantik iboraning bir ma'nosiga antonim bor bo'lishi, boshqa bir ma'nosiga esa yo'q bo'lishi mumkin.

Masalan, o'zbek tilidagi "savol bermoq" iborasi monosematik iborasiga uning 5 ma'noga ega bo'lgan "javob bermoq" iborasining birinchi ma'nosigina antonim bo'lishi Sh. Rahmatullaevning izohli lug'atida ko'rsatilgan: "Javob bermoq":

javob qilmoq – antonim: savol bermoq

javoban ish tutmoq

Javob bermoq – sinonim: qondirmoq

javobgarlikni o'z ustiga olmoq

"ketish"ga ruhsat bermoq

Ammo, faqat birinchi ma'nosiga nisbatan antonim ibora sifatida " savol bermoq" iborasini ishlatish mumkin. Qolgan to'rt ma'nosiga esa frazeologik antonim yo'q.

Endi ingliz tilidagi "give sb an answer" iborasini ma'nolariga e'tibor qilsak.

a spoken reply to a question 1. a.written reply to sth

a situation in which someone comes to the door

give sb an answer – a spoken or a written reply to a question in a test

to give solution

Bu iborani: 1. Savolga og'zaki javob bermoq – xat yoki e'longa yozma javob bermoq; 2. Telefonga yoki eshikga javob bermoq; 3. Test yoki musoboqalarda og'zaki yoki yozma javob bermoq; 4. Yechim – degan ma'nolarga ega. Va bu iboraning 1 – va 3 – ma'nolariga nisbatan antonim frazeologizm sifatida "answer a question" iborasini qo'llashimiz mumkin. Ammo, qolgan ma'nolariga nisbatan bu ibora antoim sifatida qo'llanilmaydi.

Xulosa. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik antonimiyani qiyosiy o'rganish natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. Sistem xususiyat: Frazeologik antonimiya tilning ichki qonuniyati bo'lib, u nafaqat zidlikni, balki iboralarning ko'p ma'nolilik (polisemiya) qirralarini ham aniqlashtirishga xizmat qiladi.

2. Strukturaviy turlar: Antonim iboralar tarkibiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: a) Komponentli: Bir so'zning almashishi natijasida hosil bo'ladi (yuragi keng – yuragi tor). b) Yaxlit: Butun bir obrazning boshqasiga zidlanishi (mum tishlamoq – tili bir qarich).

3. Fe'llarning ustunligi: Har ikki tilda ham antonimik munosabatlar ko'proq fe'l frazeologizmlari doirasida uchrashi (70% gacha) aniqlandi. Bu inson harakati va holatining dinamik tabiati bilan izohlanadi.

4. Milliy kolorit: O'zbek tilida antonimiya asosan ko'ngil va yurak (somatik) tushunchalari atrofida, ingliz tilida esa ko'proq ijtimoiy xulq-atvor va harakatlarni ifodalovchi obrazlar asosida shakllangan.

5. Amaliy qiymat: Frazeologik antonimlarni farqlash tarjimada aniqlikni ta'minlaydi va lug'atchilikda (leksikografiya) so'zlarning ma'no doirasini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 380 б.
2. Умирова Л. Ҳозирги замон инглиз тилида феъл фразеологик парадигма: филол. фан. номзоди. ... дис. – Самарқанд, 2004. –130 б.
3. Ураксин З.Г. Фразеологические синонимы в современном башкирском языке. АКД – Ува. 1966. – 18 с.
4. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию.-М: Прогресс, 1977. – 157 с.
5. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М: Высшая школа, 1972. – 328 б.